XITOY TILIDAGI 不 VA 没 INKOR SHAKLLARI ISHTIROKIDAGI IBORALARNING LINGVISTIK TAHLILI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-5-6

Akimov Tair
Филология фанлари бўйича
фалсафа доктори, PhD, доцент
Тошкент давлат шарқшунослик университети
Akimov.t@mail.ru

A LINGUISTIC ANALYSIS OF CHINESE IDIOMATIC EXPRESSIONS CONTAINING THE NEGATIVE MARKERS 不 (BÙ) AND 没 (MÉI)

Akimov Tair
Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Akimov.t@mail.ru

Abstract: *This thesis analyzes the structural, semantic, and linguocultural features of phraseological units containing the negative forms 不 (bù) and 没 (méi) in Modern Chinese. It comparatively examines the grammatical functions of 不 and 没 in free speech, as well as the additional meanings they acquire when used as components of phraseological units. The study also discusses the semantic characteristics of idiomatic expressions such as 不三不四, 不闻不问, 不知不觉, 没精打采, 没头没脑, 没心没肺, and 没大没小, with particular attention to the issues involved in translating these expressions into Uzbek.*

Keywords: *Chinese language, phraseology, phraseological unit, negation, 不 (bù), 没 (méi), semantics, linguoculture, translation, comparative analysis.*

Til xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vositadir. Ayniqsa, frazeologik birliklar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va obrazli tafakkurini mujassamlashtiradi. Xitoy tilidagi frazeologizmlar ham mazmuniy boyligi, obrazliligi, turg‘unligi va milliy-madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Zamonaviy xitoy tilida inkor ma’nosi, asosan, 不 (bù) va 没 (méi) vositasida ifodalanadi. 不 odatda hozirgi va kelasi zamondagi harakat-holatning inkorini, odatiy yoki umumiy xususiyatni bildiradi: 我不去 (Wǒ bù qù) — “Men bormayman”. 没 esa, asosan, harakatning amalga oshmaganligi yoki mavjud emasligini ifodalaydi: 我没去 (Wǒ méi qù) — “Men bormadim”. Biroq frazeologik birliklar tarkibida 不 va 没 faqat grammatik inkor vositasi bo‘lib qolmay, balki birlikning umumiy semantikasi, ekspressivligi va obrazliligini shakllantiruvchi komponent vazifasini bajaradi.

不 komponentli frazeologizmlarda inkor, qarama-qarshilik, rad etish, befarqlik kabi ma’nolar ko‘p uchraydi. Masalan, 不三不四 (bù sān bù sì) [1]so‘zma-so‘z tarjimasi: “uch ham emas, to‘rt ham emas” bo‘lib, ko‘chma ma’noda “na u, na bu; tayini yo‘q” mazmunini anglatadi. 不闻不问 (bù wén bù wèn) — “befarq bo‘lmoq, holidan xabar olmaslik”, 不知不觉 (bù zhī bù jué) esa “sezmasdan, bilmagan holda” ma’nolarini bildiradi. 一毛不拔 (yì máo bù bá)[2] iborasi esa “nihoyatda xasis, qo‘li qattiq” ma’nosida qo‘llanadi. Bu birliklarda 不 komponenti oddiy grammatik inkordan tashqari, turg‘un va obrazli ma’noning shakllanishida ishtirok etadi.

没 komponentli frazeologik birliklarda esa ko‘pincha yo‘qlik, mahrumlik yoki muayyan xususiyatning mavjud emasligi ifodalanadi. Masalan, 没精打采 (méi jīng dǎ cǎi) — “ruhi tushgan,

hafsalasi pir bo‘lgan”; 没头没脑 (méi tóu méi nǎo)[3] — “mantiqsiz, boshi-keti yo‘q”; 没心没肺 (méi xīn méi fèi) — “befarq, hissiz, ko‘ngli qattiq”; 没大没小 (méi dà méi xiǎo) — “kattani-kichikni bilmaslik, hurmatsizlik qilish” ma’nolarini anglatadi. Xususan, 没大没小 iborasi xitoy jamiyatidagi kattalarga hurmat, ijtimoiy munosabat va muomala madaniyati bilan bog‘liq lingvomadaniy mazmunga ega.

不 va 没 komponentlari ko‘pincha 不 X 不 Y, 没 X 没 Y kabi parallel va ritmik qoliplarda qo‘llanadi. Bunday takroriy tuzilishlar iboralarning ixchamligi, ritmikligi, obrazliligi va ekspressivligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning turg‘unligi sababli 不 va 没 ni o‘zaro almashtirish har doim ham mumkin emas. Masalan, 不三不四 yoki 没头没脑 birliklarida inkor komponentlarini almashtirish frazeologik me’yorning buzilishiga olib keladi.

Mazkur iboralarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra, ularning frazeologik ma’nosi va funksional ekvivalenti asosiy mezon bo‘lishi lozim. Jumladan, 不三不四 — “na u, na bu”, “tayinli emas”; 不闻不问 — “befarq bo‘lmoq”; 不知不觉 — “sezmasdan”; 没头没脑 — “boshi-keti yo‘q”; 没大没小 — “kattani-kichikni bilmaslik” tarzida tarjima qilinadi. Ayrim hollarda xitoycha inkor shakli o‘zbekcha muqobilda bevosita saqlanmaydi. Bu holat ikki tilning grammatik va frazeologik tizimlari o‘rtasidagi farq bilan izohlanadi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 不 va 没 komponentlari xitoy frazeologiyasida oddiy inkor vositasidan kengroq funksiyani bajaradi. 不 ko‘proq inkor, qarama-qarshilik, rad etish va befarqlik ma’nolarini, 没 esa yo‘qlik, mahrumlik va mavjud emaslik ma’nolarini shakllantiradi. Frazeologik birliklar tarkibida mazkur komponentlarning ma’nosi kengayib, obrazli, ekspressiv va lingvomadaniy mazmun kasb etadi. Ularni o‘zbek tili bilan qiyosiy o‘rganish xitoy tilining frazeologik tizimini chuqur anglash, tarjima sifatini oshirish hamda xitoy tilini o‘rganuvchilarning frazeologik va lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Akimov, T., & Keraubayev, J. (2002). 汉乌俄成语词典: Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. Toshkent.
2. Akimov, T., & Mirkomilova, A. (2023). 中乌数字成语词典. Toshkent.
3. 汉语成语大全. (2017). Beijing.